

## HUQUQBULARLIKLARNING OLDINI OLIH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

**Azimjonov Muslimbek Dilmurodjon o`g`li**

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** *Jinoiy faoliyat zamonaviy madaniyat va jamiyatda keng tarqalgan muammo bo'lib, jinoyatning qabul qilib bo'lmaydigan darajasiga odamlar duch kelmoqda. Texnologik innovatsiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'lib qoldi. Bu esa doimiy ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyatlarning oldini olish strategiyasini takomillashtirishga olib keladi (masalan, GPS kuzatish, video kuzatuv, ovozlarni eshitish va boshqalar). Shuni inobatga olgan holda, zamonaviy texnologik o'zgarishlar butun dunyo bo'ylab huquqbuzarliklarni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Shunga muvofiq, Ushbu maqolada zamonaviy apparat va dasturiy ta'minotga asoslangan namunalar muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari huquqbuzarliklarni yanada kamaytirishga yordam beradi. Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan yangi texnologiyalarni joriy etilishi jinoiy faoliyatning yuzaga kelishini kamaytirishga salmoqli darajada hissa qo'shadi.*

**Annotation:** *Criminal activity is a widespread problem in modern culture and society, and people are facing an unacceptable level of crime. Technological innovation has remained one of the main driving forces. This leads to continuous improvement of crime fighting and crime prevention strategies (eg GPS tracking, video surveillance, listening to voices, etc.). With this in mind, modern technological developments can help reduce crime worldwide. Accordingly, this article discusses examples based on modern hardware and software. Also, modern information and communication technologies help to further reduce crimes. The introduction of new technologies by law enforcement agencies significantly contributes to reducing the occurrence of criminal activity.*

**Аннотация:** *Преступная деятельность является широко распространенной проблемой в современной культуре и обществе, и люди сталкиваются с неприемлемым уровнем преступности. Технологические инновации остаются одной из главных движущих сил. Это приводит к постоянному совершенствованию стратегий борьбы с преступностью и предупреждения преступности (например, GPS-слежение, видеонаблюдение, прослушивание голосов и т. д.). Имея это в виду, современные технологические разработки могут помочь снизить уровень преступности во всем мире. Соответственно, в данной статье рассматриваются примеры на базе современного аппаратного и программного обеспечения. Также современные информационно-коммуникационные технологии способствуют дальнейшему снижению преступности. Внедрение правоохранительными органами новых технологий значительно способствует снижению возникновения преступной деятельности.*

**Kalit so'zlar:** *Tashkiliy huquqiy mexanizm, kompleks chora tadbirlar, takomillashtirish zarurati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy apparat, dasturiy ta'minot*

**Key words:** *Organizational legal mechanism, comprehensive measures, need for improvement, information and communication technologies, modern hardware, software*

**Ключевые слова:** *Организационно-правовой механизм, комплексные меры, необходимость совершенствования, информационно-коммуникационные технологии, современные технические средства, программное обеспечение.*

Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh yoʻnalishiga aylantirish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish boʻyicha puxta oʻylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurati oshib bormoqda. Shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oʻtgan davr mobaynida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan oʻzgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar koʻrish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini taʼminlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda profilaktik chora tadbirlarini amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli kengayib, ular mamuriy hududda mahalla raisi va uning oʻrinbosarlari bilan birgalikda, har bir koʻcha, har bir xonadonga birma-bir kirib, fuqarolarning ijtimoiy ahvolini oʻrganish, taklif va tavsiyalarini berishlari muhim masalalardan biri hisoblanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-iyundagi **“Huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 407-sonli qarori** qabul qilingan boʻlib, ushbu qarorda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga qaratilgan normalar oʻz aksini topganligini koʻrishimiz mumkin.

Xususan, qonunchilikda maʼmuriy huquqbuzarlikka oid ishlarni tezkor hal etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini beradigan huquqiy mexanizm mavjud emasligi va bu kamchilikni bartaraf etish yuzasidan qatʼiy chora tadbirlarni koʻrish belgilab oʻtildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy izchilligini taʼminlash, maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar yurituvini raqamlashtirish, jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali mazkur ishlarni koʻrib chiqishda ortiqcha sansalorlikka yoʻl qoʻyilishining oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan quyidagi yoʻnalishlarda ishlarni

amalga oshirish belgilab o'tilgan. Hozirda huquqbuzarliklar profilaktikasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish ancha soddalashtirildi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi o'sdi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hamkorligida "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv" loyihasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ko'rib chiqish va bayonnoma tuzishga vakolatli organlar, sudlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi, shuningdek, boshqa tashkilotlarning elektron axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiyalashtirildi:

ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yuritishda foydalaniladigan protsessual hujjatlarning yagona elektron bazasini shakllantirilib, ortiqcha yugur-yugurlardan xolos bo'lish orqali vaqt tejamkorligiga erishildi.

Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritishda ortiqcha bosqichlarni bekor qilish va muddatlarni qisqartirish orqali ish yuritish tartibini soddalashtirilishi profilaktika inspektorlarining ish faoliyatini samaradorligini oshirdi.

Avtomatlashtirilgan daktiloskopik taqqoslash tizimi, shaxsni identifikatsiya qilishning avtomatlashtirilgan tizimi hamda Biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilinishi orqali shaxsi noaniq shaxslarni qisqa vaqt ichida shaxsini aniqlash va shu bilan bog'liq turli xil qonun buzilishini oldini olish shuningdek, shaxsning huquq va erkinliklari ta'minlandi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning deyarli barcha turlarini u yoki bu tarzda oldini olish mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun huquqni muhofaza qilish organlari turli xil profilaktika choralarini qo'llashi kerak. Bunda profilaktika chora-tadbirlari deganda jinoyat sodir etilishiga sabab bo'layotgan sabablarni va ularni sodir etish uchun qulay shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan faoliyat tushunilishi kerak.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar, eng avvalo, qonun hujjatlarining ushbu sohadagi noqonuniy xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalarini o'z ichiga oladi. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunini ham bu yo'nalishdagi asosiy qadamlardan deb hisoblash mumkin va bunga ma'lumotlar bazalarini ham kiritishimiz lozim. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi **"Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"**gi PF-6196-sonli farmonida ham huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatiga uning samaradorligini oshirish va ortiqcha xizmat yuklamasini qisqartirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan bo'lgan "Yo'l xaritasi" kiritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham kompyuter jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish yo'nalishi sifatida texnik chora-tadbirlarni va tashkiliy chor-

tadbirlarni kiritishimiz mumkin. Texnik chora -tadbirlar kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish, muhim kompyuter tizimlarining zaxira nusxasini yaratish, o'g'irlik va sabotajdan himoya qilish bo'yicha tizimli choralarni ko'rish, zaxira quvvat bilan ta'minlash, maxsus dasturiy ta'minot va texnik vositalarni himoya qilish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy chora -tadbirlar kompyuter tizimlarini, kompyuter markazlarini himoya qilishni, malakali xodimlarni tanlashni, bir kishi tomonidan o'ta muhim ishlarni bajarish holatlarini istisno qilishni, uskunaning ishdan chiqishidan keyin tiklash rejasini mavjudligini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanligi jinoyatchilarning jinoiy tasavvurlari uchun imkoniyat yaratadi, ammo qonunchilik ushbu sohaning rivojlanishiga moslashishga harakat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yana-da mustahkamlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Profilaktika inspektorlari faoliyati tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslari takomillashtirildi, tizim xodimlariga yangi vazifalar yuklatildi va xizmat olib borish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini samarali tarzda amalga oshirishga yordam berayotgan dasturlar va ma'lumotlar bazasidan foydalanishda salbiy holatlar sodir bo'lmasligi va xavflarni kamaytirish maqsadida xatarlarni baholovchi dasturlar yaratilishini muhim deb hisoblayman. Axborot xavfsizligini ta'minlash va samarali himoya qilish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar shu jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ va mansbdor shaxslar ham axborot tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq xavflarni hisobga olishlari kerak.

Ko'p jihatdan risklarni tahlil qilish huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ va mansbdor shaxslarga dasturlar va dasturiy ta'minotlar himoyasini yaxshilashga yordam beradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar yuzaga kelgan xavf tahlili natijalaridan tadqiqot shakli va hajmiga qarab quyidagi maqsadlarda foydalanishlari mumkin:

- Tashkilotga tahdidlarning umumiy moliyaviy va tashkiliy ta'sirini aniqlash, baholash va solishtirish;
- Xavfsizlik tizimidagi zaifliklarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish va xavfsizlikni yaxshilash bo'yicha keyingi qadamlar to'g'risida qaror qabul qilish;
- Ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha qarorlar qabul qilish va muvofiqlashtirish jarayonlarini takomillashtirish;
- Axborot xavfsizligi siyosati va protseduralarini takomillashtirish. Va ushbu siyosat va tartiblarga rioya qilishni ta'minlash uchun iqtisodiy jihatdan samarali strategiyalarni yanada ishlab chiqish;
- Eng muhim xavflarni yumshatish uchun xavfsizlik choralarni qo'llash;
- Xavflarni tahlil qilish jarayonida xodimlarning xavfsizlik choralari va tahdidlari haqida xabardorligini oshirish uchun eng yaxshi amaliyotlarni ta'kidlash

- Xavfsizlik xavfining moliyaviy oqibatlarini ko'rib chiqish.

**Xulosa qilib aytish mumkinki,** Oxir oqibat, xavflarni tahlil qilish, agar to'g'ri amalga oshirilsa, xavf-xatarlarni boshqarishning samarali usuli hisoblanadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar shu jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ va mansbdor shaxslarga qaror qabul va keyingi chora-tadbirlarni belgilash jarayonida yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-iyundagi "Huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 407-sonli qarori
2. "The rise of technology in crime prevention: opportunities, challenges and practitioners, perspectives" Dario Ortega Anderrez, Eiman Kanjo, Amna Anwar, Shane Johnson, David Lucy February 9, 2021
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli farmoni
4. Maqola "Axborot texnologiyalari sohasidagi huquqbuzarliklar" Unjakova Irina 12.06.2021
5. Xatarlarni tahlil qilish: usullari, turlari, jarayoni, misollar, ijobiy va salbiy tomonlari <https://businessyield.com/ru/management/risk-analysis/> Maqola Emmanuel Roy